



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
BUYRUG‘I**

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori va uning o‘rinbosarlari
faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlarining (KPI) baholash metodikasi
va tartibini belgilash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF–51-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda - Farmon) ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Farmonga muvofiq:

2026-yil 1-yanvardan boshlab umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining direktor jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan direktor va uning o‘rinbosarlariga faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlari (KPI) natijasiga ko‘ra bazaviy tarif stavkalariga nisbatan tegishli 20 va 10 foiz miqdorida har oylik ustamalar belgilanishi;

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 823-son qaroriga umumta’lim muassasalarining direktori va uning o‘rinbosarlari faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholashni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori va uning o‘rinbosarlari faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlarining (KPI) baholash metodikasi 1-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori va uning o‘rinbosarlari faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlarining (KPI) baholash tartibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi (T.Shermatov), Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov), O‘quvchilar bilimini baholash, tahlil qilish va apostil xizmatini ko‘rsatish boshqarmasi (O.Zokirov), Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov), Axborot xizmati (D.Sobirova), Moliya-iqtisod departamenti (A.Boltayev), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi (I.Sharipov), Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (X.G‘aniyev) va Bolalarni qo‘shimcha ta’limga

jalb etish bo'limi (R.Karimov) umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori va uning o'rinbosarlari faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarining (KPI) baholash metodikasi va tartibi bo'yicha hududiy mas'ul xodimlariga tegishli tushuntirishlar berib borsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori va uning o'rinbosarlariga belgilangan faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlari umumta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ustamalar belgilash, moddiy rag'batlantirish va moddiy yordam berish bo'yicha ishchi guruh (keyingi o'rinlarda - Ishchi guruh) tomonidan baholanishini;

Ishchi guruh a'zosining bazaviy tarif stavkasiga har oylik ustama belgilash, uni mukofotlash yoki unga moddiy yordam belgilash to'g'risidagi masala ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, ishchi guruhning mazkur a'zosi masalani ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etmasligi hamda bu haqida ishchi guruh majlisi bayonnomasida qayd etilishini;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktor yoki direktor o'rinbosarlariga belgilanadigan har oylik ustama umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning direktor jamg'armasidagi (keyingi o'rinda Jamg'arma) mavjud mablag'lar doirasida amalga oshirilishini;

belgilangan ustamalar Jamg'armadagi mablag'lardan oshib ketgan hollarda, mazkur belgilangan har oylik ustamalar tegishli miqdorga kamaytirilishini;

har oylik ustama belgilanishi uchun direktor yoki direktor o'rinbosarlari mazkur umumta'lim muassasasida kamida 9 oy davomida asosiy lavozimi bo'yicha faoliyat yuritgan bo'lishini;

direktor yoki direktor o'rinbosarlari o'zi faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasasida boshqa lavozimga o'tganda yoki boshqa umumta'lim muassasasiga ishga o'tganda ularga tayinlangan har oylik ustamalar saqlanmasdan, bundan teng lavozimga rotatsiya qilingan holatlar mustasno ekanligini inobatga olgan holda har oylik ustama belgilash bo'yicha buyruqlarni rasmiylashtirilishi va to'lovlarni amalga oshirishni nazorat qilish vazifalari yuklatilsin.

5. Protokol bo'limi (F.Keldibekov) o'rnatilgan tartibda ushbu buyruqni Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



E. Karimova

Toshkent sh.,
2025-yil 30 - dekabr,
478-son

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori va uning o'rinbosarlari faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarining (KPI) baholash metodikasi

KO'RSATKICHLAR		BALL
UMUMIY		100
1. Akademik natijalar		40
1.	1.1. Umumta'lim muassasasi o'quvchilarining fan olimpiadalarida qo'lga kiritgan yutuqlarini baholash	10
2.	1.2. Umumta'lim muassasasi bitiruvchilarining davlat oliy ta'lim muassasasiga kirish imtihonidagi (o'rtacha ball) natijalari	10
3.	1.3. Yuqori sinf (5-11-sinf) o'quvchilarning yillik o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi (sifat ko'rsatkichi)	10
4.	1.4. Umumta'lim muassasasi bitiruvchilarining xorijiy til bo'yicha milliy va xalqaro sertifikatga ega ekanligi	5
5.	1.5. Respublika miqyosidagi rasmiy tanlovlardagi natijalari (<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovi</i>)	5
2. Noakademik natijalar		10
1.	2.1. Ilg'or ish tajribasi ommalashtirilgan o'qituvchilar ulushi	5
2.	2.2. Umumiy o'rta ta'lim maktab rahbariyatining OAVlarda faolligi (<i>internet va ijtimoiy tarmoqlar hamda matbuot va televideniya da ta'limga oid chiqishlar</i>)	5
3. Tarbiyaviy ishlar samaradorligi		15
1.	3.1. Umumta'lim tashkilotlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning ishtiroki (davomat)	5
2.	3.2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligi (<i>madaniy, huquqiy, ekologik, harbiy vatanparvarlik tanlovlarida o'quvchilarning g'olib bo'lganligi</i>)	5
3.	3.3. Tuman (shahar), viloyat va Respublika miqyosidagi tanlovlardagi natijalari (<i>madaniyat, san'at, kitobxonlik, texnika va sport yo'nalishlari bo'yicha tanlovlarda o'quvchilarning g'olib bo'lganligi</i>)	5
4. Moliyaviy faoliyat samaradorligi		5
1.	4.1. Umumta'lim muassasasi faoliyatining moliyaviy samaradorligi (budjetdan tashqari mablag'larni jalb etilishi)	5
5. Malakali o'qituvchilar bilan ta'minlanganlik darajasi		30
1.	5.1. Oliy va birinchi malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchilar ulushi	20
2.	5.2. O'qituvchilarining milliy va xalqaro tan olingan imtihon tizimlari bo'yicha sertifikatlariga egaligi	10

Direktor (o'rinbosarlar):

20%	(10%)	—	91-100 ball
15 %	(7.5%)	—	81-90 ball
10%	(5%)	—	71-80 ball
5%	(2.5%)	—	61-70 ball
0	0	—	60 ball va undan past

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori va uning o'rinbosarlari faoliyat
samaradorligi ko'rsatkichlarining (KPI) baholash tartibi**

1. AKADEMIK NATIJALAR

**1.1. Umumta'lim muassasasi o'quvchilarining fan olimpiadalarida qo'lga kiritgan
yutuqlarini baholash**

Ushbu mezonga **10 ball** ajratilgan bo'lib, **Asosiy olimpiadaning** ikkinchi (tuman-shahar), uchinchi (hududiy), to'rtinchi (respublika) bosqichlarida, shuningdek **Xalqaro olimpiadalarda** va ularga saralash bosqichlarda hamda **Fan olimpiadalari markazi** tomonidan tashkil etiladigan onlayn olimpiadalardagi ishtiroki va yutuqlari qarab, ballar 1-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

1-jadval

Ko'rsatkich	Ball
1.1. Umumta'lim muassasasi o'quvchilarining fan olimpiadalarida qo'lga kiritgan yutuqlarini baholash	10
1.1.1. O'quvchilari Asosiy olimpiadaning ikkinchi (tuman-shahar) bosqichida sovrinli o'rinlarni egallaganligi	3
1 ta sovrinli o'rin bo'lsa	2
2 ta va undan ortiq sovrinli o'rin bo'lsa	3
1.1.2. O'quvchilari Asosiy olimpiadaning uchinchi (hududiy) bosqichida sovrinli o'rinlarni egallaganligi	3
Eng yaxshi ko'rsatkichi 3-o'rin bo'lsa	1
Eng yaxshi ko'rsatkichi 2-o'rin bo'lsa	2
Eng yaxshi ko'rsatkichi 1-o'rin bo'lsa	3
1.1.3. O'quvchilari Asosiy olimpiadaning to'rtinchi (respublika) bosqichi g'olib va sovrindori bo'lganligi	2
Respublikada sovrinli o'rin bo'lsa	2
1.1.4. O'quvchilari Xalqaro olimpiadalarda va ularga saralash bosqichlarda erishgan yutuqlari	2
Xalqaro olimpiadalarga saralash bosqichida ishtirok etish yo'llanmasini qo'lga kiritsa	1
Xalqaro olimpiadalarga saralash bosqichlaridan o'tib terma jamoa tarkibiga kirs	1,5
Vazirlar Mahkamasining 09.09.2021-yildagi 562-son qarorida belgilangan Xalqaro olimpiadalarda sovrindor (oltin, kumush, bronza) bo'lsa	2

1.2. Umumta'lim muassasasi bitiruvchilarining davlat oliy ta'lim muassasasiga kirish imtihonidagi (o'rtacha ball) natijalari

Ushbu mezoniga **10 ball** ajratilgan bo'lib, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{1.2} = \frac{X_1}{X_2 \times Ball_{max}} \times 100$$

bu yerda,

$I_{1.2}$ – umumta'lim muassasasi bitiruvchilarining davlat oliy ta'lim muassasasiga kirish imtihonidagi (o'rtacha ball) natijalari (eng yuqori balga nisbatan foizda hisoblanadi);

X_1 – umumta'lim muassasasi bitiruvchilarining davlat oliy ta'lim muassasasiga kirish imtihonida to'plagan jami bali;

X_2 – imtihonda ishtirok etgan bitiruvchilar soni;

$Ball_{max}$ – O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasining tegishli bayoni bilan tasdiqlanadigan eng yuqori ball.

Natijalarga ko'ra, ballar 2-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

2-jadval

Ko'rsatkich	Ball
Umumta'lim muassasasi bitiruvchilarining davlat oliy ta'lim muassasasiga kirish imtihonidagi (o'rtacha ball) natijalari	10
Bitiruvchilarning imtihondagi (o'rtacha ball) natijalari 30% dan 35% gacha bo'lsa	2
Bitiruvchilarning imtihondagi (o'rtacha ball) natijalari 35% dan 40% gacha bo'lsa	4
Bitiruvchilarning imtihondagi (o'rtacha ball) natijalari 40% dan 45% gacha bo'lsa	6
Bitiruvchilarning imtihondagi (o'rtacha ball) natijalari 45% dan 50% gacha bo'lsa	8
Bitiruvchilarning imtihondagi (o'rtacha ball) natijalari 50% va undan yuqori bo'lsa	10

1.3. Yuqori sinf (5-11-sinf) o'quvchilarning yillik o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi (sifat ko'rsatkichi)

Ushbu mezoniga **10 ball** ajratilgan bo'lib, **e-maktab** ma'lumotlari asosida ballar 3-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

3-jadval

Ko'rsatkich	Ball
Yuqori sinf (5-11-sinf) o'quvchilarning yillik o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi (sifat ko'rsatkichi)	10
61-70 foiz oralig'ida bo'lsa	2

71-80 foiz oralig'ida bo'lsa	4
81-90 foiz oralig'ida bo'lsa	6
91-95 foiz oralig'ida bo'lsa	8
96 foizdan yuqori bo'lsa	10

1.4. Umumta'lim muassasasi bitiruvchilarining xorijiy til bo'yicha milliy va xalqaro sertifikatga ega ekanligi

Ushbu mezonga **5 ball** ajratilgan bo'lib, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{1.4} = \frac{X_1 \times 100}{X_2}$$

bu yerda,

$I_{1.4}$ – bitiruvchilarning xorijiy til bo'yicha milliy va xalqaro sertifikatga ega ekanligi foizini ko'rsatuvchi indeks;

X_1 – xorijiy til bo'yicha milliy va xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha tegishli darajadagi sertifikatga ega bitiruvchilar soni;

X_2 – barcha bitiruvchilar soni;

Natijalarga ko'ra ballar 4-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

4-jadval

Ko'rsatkich	Ball
Umumta'lim muassasasi bitiruvchilarining xorijiy til bo'yicha milliy va xalqaro sertifikatga ega ekanligi*	5
10-24 %ni tashkil etsa	1
25-39 %ni tashkil etsa	2
40-54 %ni tashkil etsa	3
55-69 %ni tashkil etsa	4
70 % va undan ko'pini tashkil etsa	5

* *Umumta'lim muassasasi bitiruvchilarining xorijiy til bo'yicha milliy va xalqaro tan olingan imtihon sertifikatlarga ega ekanligi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda imtiyoz beradigan sertifikatlar soniga nisbatan aniqlanadi.*

1.5. Respublika miqyosidagi rasmiy tanlovlardagi natijalari (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovi)

Ushbu mezonga **5 ball** ajratilgan bo'lib, umumta'lim maktablari **natijalari asosida** 5-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

5-jadval

Ko'rsatkich	Ball
Umumta'lim maktablarining tanlovda ko'rsatgan natijalari (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovi)	5
Tanlovning tuman (shahar) bosqichida eng yuqori natija ko'rsatgan ishtirokchilarning top 50 foizligiga kirgan maktablarga	1
Tanlovning tuman (shahar) bosqichida eng yuqori natija ko'rsatgan ishtirokchilarning top 40 foizligiga kirgan maktablarga	2
Tanlovning tuman (shahar) bosqichida eng yuqori natija ko'rsatgan ishtirokchilarning top 30 foizligiga kirgan maktablarga	3
Tanlovning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgan maktablarga	4
Tanlovning respublika bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgan 14 ta maktablarga	5

2. NOAKADEMIK NATIJALAR

2.1. Ilg'or ish tajribasi ommalashtirilgan o'qituvchilar ulushi

Ilg'or ish tajribasi ommalashtirilgan o'qituvchilarning ulushini baholovchi ushbu mezonga **5 ball** ajratilgan hamda quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{6.1} = \frac{0.25 \times X_1 + 0.35 \times X_2 + 0.4 \times X_3}{X_4} \times 100\%$$

bu yerda,

$I_{6.1}$ – ilg'or ish tajribasi ommalashtirilgan o'qituvchilarning ulushini ko'rsatuvchi indeks;

X_1 – ilg'or ish tajribasi tuman(shahar) miqyosida ommalashtirilgan o'qituvchilar soni;

X_2 – ilg'or ish tajribasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida ommalashtirilgan o'qituvchilar soni;

X_3 – ilg'or ish tajribasi Respublika miqyosida ommalashtirilgan o'qituvchilar soni;

X_4 – jami o'qituvchilar o'rni (jami stavka) soni.

Natijalarga ko'ra ballar 6-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

6-jadval

Ko'rsatkich	Ball
Ilg'or ish tajribasi ommalashtirilgan o'qituvchilarning ulushi	5
2 gachani tashkil etsa	1
2 dan 4 gachani tashkil etsa	2

4 dan 6 gachani tashkil etsa	3
6 dan 8 gachani tashkil etsa	4
8 dan ko'pni tashkil etsa	5

2.2. Umumiy o'rta ta'lim maktab rahbariyatining OAVlarda faolligi (internet va ijtimoiy tarmoqlar hamda matbuot va televideniyada ta'limga oid chiqishlar)

Ushbu mezonga **5 ball** ajratilgan bo'lib, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi Internet sahifalari va ijtimoiy tarmoqlari, tumandagi mavjud davriy nashrlar va telekanallar, shu yo'nalishda viloyat miqyosmda hamda Respublika yetakchi internet saytlari, davriy bosma nashrlar va telekanallar orqali chiqishlarga qarab, ballar 7-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

7-jadval

Ko'rsatkich	Ball
Umumiy o'rta ta'lim maktab rahbariyatining OAVlarda faolligi (internet va ijtimoiy tarmoqlar hamda matbuot va televideniyada ta'limga oid chiqishlar)	5
Tuman (shahar) miqyosida chiqishlar	3
Viloyat miqyosida chiqishlar	4
Respublika va xorijiy miqyosida chiqishlar	5

3. TARBIYAVIY ISHLAR SAMARADORLIGI

3.1. Umumta'lim tashkilotlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning ishtiroki (davomat)

Ushbu mezonga **5 ball** ajratilgan bo'lib, **e-maktab** ma'lumotlari asosida ballar 8-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

8-jadval

Ko'rsatkich	Ball
Umumta'lim tashkilotlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning ishtiroki (davomat)	5
91-92 foiz bo'lsa	1
93-94 foiz bo'lsa	2
95-96 foiz bo'lsa	3
97-98 foiz bo'lsa	4
99-100 foiz bo'lsa	5

3.2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligi (madaniy, huquqiy, ekologik, harbiy vatanparvarlik tanlovlarida o'quvchilarning g'olib bo'lganligi)

Ushbu mezonga **5 ball** ajratilgan bo'lib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan hamkorlik tashkilotlar bilan belgilangan tartib asosida **o'tkaziladigan madaniy, huquqiy, ekologik, harbiy vatanparvarlik tanlovlarida** o'quvchilarning birinchi (tuman-shahar), ikkinchi (hududiy), uchinchi (respublika) bosqichlarida ishtiroki va yutuqlari qarab, ballar 9-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

9-jadval

Ko'rsatkich	Ball
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligi (madaniy, huquqiy, ekologik, harbiy vatanparvarlik tanlovlarida o'quvchilarning g'olib bo'lganligi)	5
Tuman (shahar) bosqichi	3
Viloyat (hududiy) bosqichi	4
Respublika bosqichi	5

3.3. Tuman (shahar), viloyat va Respublika miqyosidagi tanlovlardagi natijalari (madaniyat, san'at, kitobxonlik, texnika va sport yo'nalishlari bo'yicha tanlovlarda o'quvchilarning g'olib bo'lganligi)

Ushbu mezonga **5 ball** ajratilgan bo'lib, umumta'lim maktablari **natijalari asosida** 10-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

10-jadval

Ko'rsatkich	Ball
Tuman (shahar), viloyat va Respublika miqyosidagi tanlovlardagi natijalari (madaniyat, san'at, kitobxonlik, texnika va sport yo'nalishlari bo'yicha tanlovlarda o'quvchilarning g'olib bo'lganligi)	5
Tuman (shahar) bosqichi	3
Viloyat (hududiy) bosqichi	4
Respublika bosqichi	5

4. MOLIYAVIY FAOLIYAT SAMARADORLIGI

4.1. Umumta'lim muassasasi faoliyatining moliyaviy samaradorligi (budjetdan tashqari mablag'larni jalb etilishi)

Ushbu mezonga **5 ball** ajratilgan bo'lib, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{4.1} = \frac{X_1}{X_2}$$

bu yerda,

$I_{4.1}$ – umumta’lim muassasasi faoliyatining moliyaviy samaradorligini ko’rsatuvchi indeks;

X_1 – yil davomida budjetdan tashqari jalb etilgan mablag’lar miqdori;

X_2 – o’quvchilar soni.

Natijalarga ko’ra, ballar 11-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

11-jadval

Ko’rsatkich	Ball
Umumta’lim muassasasi faoliyatining moliyaviy samaradorligi (byudjetdan tashqari mablag’larni jalb etilishi)	5
Har bir o’quvchiga BHMning 0,51 – 1,0 baravari oralig’ida bo’lsa	1
Har bir o’quvchiga BHMning 1,01 – 2,0 baravari oralig’ida bo’lsa	2
Har bir o’quvchiga BHMning 2,01 – 3,0 baravari oralig’ida bo’lsa	3
Har bir o’quvchiga BHMning 3,01 – 4,0 baravari oralig’ida bo’lsa	4
Har bir o’quvchiga BHMning 4,01 baravari va undan ko’p bo’lsa	5

5. MALAKALI O’QITUVCHILAR BILAN TA’MINLANGANLIK DARAJASI

5.1. Oliy va birinchi malaka toifasiga ega bo’lgan o’qituvchilar ulushi

O’qituvchilarning sifat tarkibini baholovchi ushbu mezonga **20 ball** ajratilgan hamda quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{5.1} = \frac{X_1 + X_2}{X_3} \times 100\%$$

bu yerda,

$I_{5.1}$ – oliy va birinchi malaka toifasiga ega bo’lgan o’qituvchilar ulushi ko’rsatuvchi indeks;

X_1 – oliy malaka toifasiga ega bo’lgan o’qituvchilar soni;

X_2 – birinchi malaka toifasiga ega bo’lgan o’qituvchilar soni;

X_3 – jami o’qituvchilar o’rni (jami stavka) soni.

Natijalarga ko’ra ballar 12-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

12-jadval

Ko’rsatkich (1-variant)	Ball
Oliy va birinchi malaka toifasiga ega bo’lgan o’qituvchilar ulushi	20
20 dan 30 % gachani tashkil etsa	5
30 dan 40 % gachani tashkil etsa	10
40 dan 50 % gachani tashkil etsa	15

5.2. O‘qituvchilarining milliy va xalqaro tan olingan imtihon tizimlari bo‘yicha sertifikatlarga egaligi

Ushbu mezonga **10 ball** ajratilgan bo‘lib, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{5.2} = \frac{X_1}{X_2} \times 100\%$$

bu yerda,

$I_{5.2}$ – o‘qituvchilarining milliy va xalqaro tan olingan imtihon tizimlari bo‘yicha bilim darajalarining ko‘rsatkichlari indeksi;

X_1 – milliy va xalqaro tan olingan sertifikatga ega o‘qituvchilari soni;

X_2 – milliy va xalqaro sertifikatlar joriy etilgan fanlar bo‘yicha umumiy o‘qituvchilar soni**;

Natijalarga ko‘ra ballar 13-jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

13-jadval

Ko‘rsatkich	Ball
O‘qituvchilarining milliy va xalqaro tan olingan imtihon tizimlari bo‘yicha sertifikatlarga egaligi*	10
5 dan 10 % gachani tashkil etsa	2
11 dan 15 % gachani tashkil etsa	4
16 dan 20 % gachani tashkil etsa	6
21 dan 25 % gachani tashkil etsa	8
26 % va undan ko‘pini tashkil etsa	10

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasasilari o‘qituvchilarining milliy va xalqaro tan olingan imtihon tizimlari bo‘yicha malaka va ko‘nikmalari darajalarini baholash ularni tegishli sertifikatga ega ekanliklarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Bunda Vazirlik tomonidan ro‘yxati tasdiqlangan milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar erp.maktab.uz platformasi orqali haqiqiy deb qabul qilingan hamda qo‘shimcha ustama to‘lanayotganlari asosida amalga oshiriladi.*

*** Milliy va xalqaro tan olingan sertifikat joriy etilgan fanlar o‘qituvchilari soni belgilangan tartibda hisobga olinadi.*